| 7. | <b>Н.Т. Маматова, К.У. Куйлиев, Р.Т. Турсунова, А.А. Ашуров, Б.А. Абдухакимов</b><br>Роль иммунологических тестов в раннем выявлении туберкулеза у детей<br><b>N.T. Mamatova, K.U. Kuyliyev, R.T. Tursunova, A.A. Ashurov, B.A. Abdukhakimov</b><br>The role of immunological tests in the early detection of tuberculosis in children<br><b>N.T.Mamatova, K.U.Kuyliyev, R.T.Tursunova, A.A. Ashurov, B.A.Abduhakimov</b><br>Bolalarda tuberkulyozni erta aniqlashda immunologik sinamalarning o'rni.....                                                                                                                                                                                                  | 36 |
| 8. | <b>Ф.Ю. Назаров, М.Ф. Юсуfoва</b><br>Сравнительная оценка эффективности комплексной терапии на показатели гуморальной и иммунной систем у больных с постковидным синдромом<br><b>F.Y. Nazarov, M.F. Yusufova</b><br>Comparative evaluation of the effectiveness of complex therapy on humoral and immune system parameters in patients with post-COVID syndrome<br><b>F.Y. Nazarov, M.F. Yusufova</b><br>Post-COVID sindromli bemorlarda kompleks terapiyaning gumoral va immun tizim ko'rsatkichlariga ta'sirining qiyosiy bahosi.....                                                                                                                                                                    | 40 |
| 9. | <b>А.А. Насирова</b><br>Бронхообструктивный синдром: клинико-функциональные особенности и эффективность комплексной терапии<br><b>A.A. Nasirova</b><br>Broncho-obstructive syndrome: clinical and functional features and effectiveness of complex therapy<br><b>A.A. Nasirova</b><br>Bronxoobstruktiv sindrom: klinik-funksional xususiyatlari va kompleks terapiya samaradorligi.....                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | 44 |

|     |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |    |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 10. | <b>У. Д. Пардаева, У. М. Бердиоров, А. А. Ахмедов, А. А. Омонов</b><br>Особенности течения туберкулезного перикардита<br><b>U. D. Pardayeva, U. M. Berdiyoyrov, A. A. Ahmedov, A. A. Omonov</b><br>Features of tuberculosis pericarditis<br><b>U. D. Pardayeva, U. M. Berdiyoyrov, A. A. Ahmedov, A. A. Omonov</b><br>Tuberkulyoz perikarditning o'ziga xos xususiyatlari.....                                                                                                                                                                                   | 48 |
| 11. | <b>Х.И. Турдибеков, Г.Н. Шукуров, Р.Р. Кувандиков, А.А. Уралов, С.Э. Эштемиров</b><br>Патогенетические аспекты и клинические последствия нутритивной недостаточности при туберкулезе<br><b>Kh.I. Turdibekov, G.N. Shukurov, R.R. Kuvandikov, A.A. Uralov, S.E. Eshtemirov</b><br>Pathogenetic aspects and clinical consequences of nutritional deficiency in tuberculosis<br><b>X.I. Turdibekov, G'N. Shukurov, R.R. Kuvandikov, A.A. O'ralov, S.E. Eshtemirov</b><br>Tuberkulyozda nutritiv yetishmovchilikning patogenetik jihatlari va klinik oqibatlari..... | 52 |
| 12. | <b>С.Ж. Ходжиева, С.Ш. Холмамедова, А.А. Махманазаров, И.К. Ганиев, Ш.Ш. Эшмуродов</b><br>Распространенность туберкулеза среди пациентов, инфицированных ВИЧ/СПИД<br><b>S.D. Khodjiyeva, S.Sh. Xolmamedova, A.A. Maxmanazarov, I.K. Ganiyev, Sh.Sh. Eshmurodov</b><br>Prevalence of tuberculosis among patients infected with HIV/AIDS<br><b>S.J. Xodjiyeva, S.Sh. Xolmamedova, A.A. Maxmanazarov, I.K. G'aniyev, Sh.Sh. Eshmurodov</b><br>OIV/OITS bilan kasallangan bemorlarda tuberkulyoz tarqalishi.....                                                     | 56 |
| 13. | <b>С.А. Ходжаева, Д.Н. Аджаблаева, Х.Н. Убайдуллаев, М.Н. Са'динов</b><br>Длительное наблюдение за семейным очагом туберкулёза<br><b>S.A. Khodjayeva, D.N. Adjablayeva, Kh.N. Ubaydullayev, M.N. Sa'dinov</b><br>Long-term observation of a family tuberculosis focus<br><b>S.A. Xodjayeva, D.N. Adjablayeva, X.N. Ubaydullayev, M.N. Sa'dinov</b><br>Oilaviy tuberkulyoz o'chog'ining uzoq muddatli kuzatuvi.....                                                                                                                                               | 60 |

**Турдибеков Х. И.**Самаркандский государственный медицинский университет  
Самарканд, Узбекистан**Шукуров Г. Н.**Самаркандского областного центра фтизиатрии и пульмонологии,  
Самарканд, Узбекистан**Кувандиков Р. Р.**Самаркандский государственный медицинский университет  
Самарканд, Узбекистан**Уралов А. А.**Самаркандский государственный медицинский университет  
Самарканд, Узбекистан**Эштемиров С. Э.**Самаркандский государственный медицинский университет  
Самарканд, Узбекистан**ПАТОГЕНЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ И КЛИНИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ НУТРИТИВНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ ПРИ ТУБЕРКУЛЕЗЕ****For citation:** Kh.I. Turdibekov, G.N. Shukurov, R.R. Kuvandikov, A.A. Uralov, S.E. Eshtemirov PATHOGENETIC ASPECTS AND CLINICAL CONSEQUENCES OF NUTRITIONAL DEFICIENCY IN TUBERCULOSIS. Journal of cardiorespiratory research. 2026, vol 7, issue 2/2.<http://dx.doi.org/10.26739/2181-0974/2026/7/2/2/11>**АННОТАЦИЯ**

Систематический скрининг нутритивного статуса и целенаправленная нутритивная поддержка больных туберкулезом остаются недостаточно стандартизированными в реальной клинической практике, особенно на уровне противотуберкулезных диспансеров.

**Цель исследования:** Оценить клинико-патогенетическое значение нутритивного дефицита при ТБ, а также обозначить основные подходы к нутритивной коррекции.

**Материалы и методы:** в исследование были включены 82 пациента в возрасте 18–65 лет с впервые выявленным лекарственно чувствительным активным лёгочным туберкулезом, находившиеся на стационарном лечении.

Проведена комплексная оценка нутритивного статуса и его динамики на фоне стандартной противотуберкулезной терапии.

**Результаты исследования:** установлено, что у значительной части больных туберкулез сопровождается выраженным нутритивным дефицитом, проявляющимся снижением индекса массы тела и гипоальбуминемией. На фоне лечения отмечено достоверное улучшение нутритивных показателей, при этом ранний прирост массы тела и повышение уровня альбумина имели выраженное прогностическое значение.

**Заключение:** в профилактике неблагоприятных исходов туберкулеза важная роль должна отводиться систематическому скринингу нутритивного статуса, мониторингу динамики массы тела и включению целенаправленной нутритивной коррекции в стандарт ведения пациентов.

**Ключевые слова:** туберкулез, нутритивный дефицит, индекс массы тела, альбумин.

**Turdibekov K. I.**Samarkand State Medical University  
Samarkand, Uzbekistan**Shukurov G.N.**Samarkand Regional Center of Phthisiology and Pulmonology,  
Samarkand, Uzbekistan**Kuvandikov R. R.**Samarkand State Medical University  
Samarkand, Uzbekistan**Uralov A. A.**Samarkand State Medical University  
Samarkand, Uzbekistan

## PATHOGENETIC ASPECTS AND CLINICAL CONSEQUENCES OF NUTRITIONAL DEFICIENCY IN TUBERCULOSIS

## ABSTRACT

**Introduction:** Systematic screening of nutritional status and targeted nutritional support for tuberculosis patients remain insufficiently standardized in real clinical practice, especially at the level of tuberculosis dispensaries.

**Purpose:** To evaluate the clinical and pathogenetic significance of nutritional deficiency in TB, as well as to outline the main approaches to nutritional correction.

**Research materials and methods:** The study included 82 hospitalized patients aged 18–65 with newly diagnosed drug-susceptible active pulmonary tuberculosis. A comprehensive assessment of nutritional status and its dynamics during standard anti-tuberculosis therapy was performed.

**Research results:** It was found that in a significant number of patients, tuberculosis is accompanied by a pronounced nutritional deficiency, manifested by a decrease in body mass index and hypoalbuminemia. During treatment, a significant improvement in nutritional parameters was noted; early weight gain and an increase in albumin levels had strong prognostic value.

**Conclusion:** Systematic screening of nutritional status, monitoring of body weight dynamics, and the inclusion of targeted nutritional correction in the standard of patient management should play an important role in preventing unfavorable tuberculosis outcomes.

**Key words:** tuberculosis, nutritional deficiency, body mass index, albumin.

**Turdibekov X. I.**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti  
Samarqand, O'zbekiston

**Shukurov G' N.**

Samarqand viloyat ftiziatriya va pulmonologiya markazi  
Samarqand, O'zbekiston

**Kuvandikov R.R.**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti  
Samarqand, O'zbekiston

**O'ralov A. A.**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti  
Samarqand, O'zbekiston

**Eshtemirov S.E.**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti  
Samarqand, O'zbekiston

## TUBERKULOZDA NUTRITIV YETISHMOVCHILIKNING PATOGENETIK JIHATLARI VA KLINIK OQIBATLARI

## ANNOTATSIYA

Nutritiv holatni tizimli skrining qilish va tuberkuloz bilan kasallangan bemorlarni maqsadli nutritiv qo'llab-quvvatlash real klinik amaliyotda, ayniqsa silga qarshi dispanserlar darajasida hali ham yetarli darajada standartlashtirilmagan.

**Tadqiqot maqsadi:** Tuberkulozda nutritiv tanqislikning klinik-patogenetik ahamiyatini baholash, shuningdek, nutritiv korreksiyaning asosiy yondashuvlarini belgilash.

**Material va usullar:** Tadqiqotga stasionar sharoitda davolanayotgan, birinchi marta aniqlangan, dori vositalariga sezgir o'pka tuberkulozi bilan og'rigan 18 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan 82 nafar bemor kiritildi. Standart silga qarshi terapiya fonida nutritiv holat va uning dinamikasi har tomonlama baholandi.

**Tadqiqot natijalari:** Ko'pchilik bemorlarda tuberkuloz tana vazni indeksi pasayishi va gipoalbuminemiya bilan namoyon bo'ladigan yaqqol nutritiv tanqislik bilan kechishi aniqlandi. Davolanish jarayonida nutritiv ko'rsatkichlarning ishonchli yaxshilanishi kuzatildi, bunda tana vaznining erta ortishi va albumin darajasining ko'tarilishi muhim prognostik ahamiyatga ega bo'ldi.

**Xulosa:** Tuberkulozning noxush oqibatlarini profilaktika qilishda nutritiv holatni tizimli skrining qilish, tana vazni dinamikasini monitoring qilish va bemorlarni olib borish standartiga maqsadli nutritiv korreksiyaning kiritish muhim rol o'ynashi kerak.

**Kalit so'zlar:** tuberkuloz, nutritiv tanqislik, tana vazni indeksi, albumin.

Tuberkuloz dunyoda yuqumli kasalliklar natijasidagi o'limning yetakchi sabablaridan biri bo'lib qolmoqda, yangi holatlarning sezilarli qismi past va o'rta daromadli mamlakatlarga to'g'ri keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti baholashlariga ko'ra, faol tuberkuloz (TB)ning yangi holatlarining katta qismi aynan to'ymay ovqatlanish bilan bog'liq bo'lib, nutritiv tanqislikka ega shaxslarda kasallik rivojlanish xavfi oziqlanishida yaqqol buzilishlar bo'lmagan shaxslarga nisbatan uch baravar yuqoridir [1, 2, 10].

Faol tuberkulozda surunkali yallig'lanish, asosiy almashinuvning kuchayishi, ishtaxaning pasayishi va barqaror katabolik holat shakllanishi yog' va mushak massasining progressiv yo'qolishiga olib keladi. Qo'shimcha ravishda nutritiv holatga gastroenterologik kasalliklar (gastritlar, enteropatiyalar, surunkali gepatitlar, dori-vositalar bilan chaqirilgan jigar shikastlanishi) hamda silga qarshi preparatlarning nojo'ya ta'sirlari (ko'ngil aynishi, qusish, anoreksiya, diareya) ta'sir ko'rsatadi. Natijada gipoalbuminemiya,

mikronutrientlar tanqisligi va ikkilamchi immunodefisit namoyonlari bilan kechuvchi kompleks malnutrisiya sindromi shakllanadi [3].

Yetarlicha ishonchli dalillar bazasi mavjudligiga qaramasdan, TB bilan og'rigan bemorlarda nutritiv holatni tizimli skrining qilish va maqsadli nutritiv qo'llab-quvvatlash amaliyotda, ayniqsa silga qarshi dispanserlar darajasida, hali ham yetarli darajada standartlashtirilmagan.

**Tadqiqot maqsadi.** Tuberkuloz (TB)da nutritiv tanqislikning klinik-patogenetik ahamiyatini baholash, shuningdek nutritiv korreksiyaning asosiy yondashuvlarini belgilash.

**Materiallar va usullar.** Stasionar sharoitda davolangan, ilk bor aniqlangan doriga sezuvchan o'pka tuberkulozi bilan kasallangan 82 nafar bemorni prospektiv kuzatish natijalari tahlil qilindi. Tadqiqotga 18 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan, ilk bor tashxis qo'yilgan o'pka TB va bakteriya ajratuvchi (mikroskopiya, PSR va/yoki kultura usuli ma'lumotlari asosida) bemorlar kiritildi. Yaqqol immunodefisit bilan

kechuvchi isbotlangan OITV-infeksiyasi, faol onkologik kasalliklar, shuningdek davolash va ovqatlanish tartibiga rioya qilishga to'g'ri qilinmagan qiluvchi og'ir ruhiy patologiyasi bo'lgan bemorlar tadqiqotga kiritilmadi.

Nutritiv holatni baholash antropometrik ko'rsatkichlarni aniqlashni, shuningdek gospitalizatsiyadan oldingi 6 oy davomida tana vaznidagi o'zgarishlarni baholashni o'z ichiga oldi. Laborator ko'rsatkichlar sifatida qon zardobidagi albumin, umumiy oqsil va gemoglobin darajalari o'rganildi. Davolashning 2- va 6-oyida tana vazni, tana vazn indeksi (TVI) va albumin darajasi qayta baholandi.

Statistik tahlil tavsifiy statistika (M±SD, mediana, prosentillar) usullari yordamida hamda vaqt davomida ko'rsatkichlarni taqqoslash

1-jadval

**Adabiyot ma'lumotlari va o'z kuzatuvlarimizga ko'ra tuberkulyoz bilan kasallangan bemorlarda tana vazni indeksi (TVI)**

| Manba / ma'lumotlar                | Mamlakat / dizayn        | TB (n) | Taqqoslash guruhi | TVI (TB), kg/m <sup>2</sup> | Nazorat   | p       |
|------------------------------------|--------------------------|--------|-------------------|-----------------------------|-----------|---------|
| Sultan K., 2012                    | Iroq, holat-nazorat      | 60     | 60 sog'lom        | 16,9±1,1                    | 23,5±2,1  | p<0,001 |
| Heidarneshad F. va hammuall., 2016 | Eron, faol va latent TB  | 17     | Latent infeksiya  | 19,46±2,79                  | 25,4±3,46 | p<0,001 |
| Musuenge B.B. va hammuall., 2020   | Burkina-Faso, ko'ndalang | 302    | Yo'q              | <18,5 — 35,8%; <16 — 7,3%   | —         | —       |
| Shaxsiy ma'lumotlar                | Statsionar, ilk TB       | 82     | 60 sog'lom        | 18,9±2,2; <18,5 — 43%       | 26,3±4,37 | p<0,001 |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tuberkulyoz bilan kasallangan bemorlarda TVI ko'rsatkichlari sog'lom shaxslarga nisbatan sezilarli darajada past bo'lib, bu kasallikning og'irligi va nutritiv tanqislik bilan bog'liqligini tasdiqlaydi.

Davolashning 6 oyidan so'ng o'rtacha TVI 19,8±2,1 kg/m<sup>2</sup> gacha oshdi, ya'ni o'sish 1,8 kg/m<sup>2</sup> ni tashkil etdi. TVI <18,5 kg/m<sup>2</sup> bo'lgan bemorlar ulushi 45% dan 17% gacha kamaydi. Bu natijalar samarali kimyoterapiya va ovqatlanishni korreksiya qilish fonida metabolik holatning tiklanishini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida qon zardobidagi albumin darajasi ham muhim diagnostik va prognostik ko'rsatkich sifatida baholandi. Boshlang'ich

2-jadval

**Tuberkulyoz bilan kasallangan bemorlarda tana vazni va TVI dinamikasi**

| Manba / ma'lumotlar          | Dizayn            | Boshlang'ich ko'rsatkichlar | Dinamika va klinik ahamiyati               |
|------------------------------|-------------------|-----------------------------|--------------------------------------------|
| Phan M.N. va hammuall., 2016 | Ko'p markazli     | Turli TVI                   | 2 oyda 31,9% ≥5% vazn ortgan               |
| IGIMS (Patna)                | Prospektiv, 6 oy  | TVI 17,6; vazn 48,2 kg      | TVI 20,1; vazn 54,6 kg                     |
| DOTS, Hindiston              | Retrospektiv      | 42 kg                       | +2,6–3,2 kg; vazn ortmasligi yomon prognoz |
| Shaxsiy ma'lumotlar          | Prospektiv, bemor | 82                          | 49,6±8,3 kg; TVI 17,9±2,2                  |
|                              |                   |                             | 6 oyda +5,2±2,6 kg; 44% ≥10% ortgan        |

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tana vazni va TVI dinamikasi davolash samaradorligining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi.

Tadqiqotimizda boshlang'ich o'rtacha tana vazni 49,6±8,3 kg ni tashkil etdi. Davolashning 2-oyida tana vazni 52,1±8,2 kg gacha oshdi (+2,5±1,7 kg), 6-oyda esa 54,8±8,1 kg (+5,2±2,6 kg) ni tashkil etdi. 6 oy davomida ≥10% vazn ortishi 44% bemorlarda kuzatildi.

Shuningdek, 2-oyga kelib tana vazni ≥5% ga oshgan bemorlarda balg'am konversiyasi 78% hollarda kuzatilgan bo'lsa, vazn ortishi kam bo'lgan guruhda bu ko'rsatkich 52% ni tashkil etdi. Bu natijalar tana vazni dinamikasining klinik ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Qo'shimcha ravishda, bemorlarning umumiy holati baholanganda, tana vazni ortishi bilan birga holsizlikning kamayishi, ishtahaning yaxshilanishi va jismoniy faollikning ortishi kuzatildi. Bu esa davolash samaradorligining kompleks bahosini beradi.

Shunday qilib, olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tuberkulyoz bilan kasallangan bemorlarda nutritiv tanqislik keng tarqalgan bo'lib, tana vazni va albumin darajasining dinamikasi davolash samaradorligining muhim klinik-prognostik mezonlari hisoblanadi.

uchun juft tanlamalar uchun Studentning t-mezeni qo'llanildi; p<0,05 holatda farqlar statistik jihatdan ahamiyatli deb hisoblandi.

Tadqiqotga kiritilgan o'pka tuberkulyozi bilan kasallangan bemorlarda (n=82) tana vazni indeksi (TVI) tahlili shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich bosqichda o'rtacha TVI 18,9±2,2 kg/m<sup>2</sup> (14,3–23,1 kg/m<sup>2</sup> diapazonda) ni tashkil etdi. TVI taqsimoti tana vazni tanqisligi tomon siljigan bo'lib, bemorlarning 43% ida TVI 18,5 kg/m<sup>2</sup> dan past bo'lganligi aniqlandi. Bu holat organizmda katabolik jarayonlarning ustunligi va surunkali yallig'lanish bilan bog'liq metabolik buzilishlar mavjudligini ko'rsatadi.

davrda albumin darajasi 32,1±4,7 g/l bo'lib, bemorlarning 39% ida <30 g/l aniqlangan. Davolashning 6-oyiga kelib bu ko'rsatkich 36,8±4,1 g/l gacha oshdi. Shu bilan birga, og'ir gipoalbuminemiya holatlari 11% gacha kamaydi.

Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, albumin darajasi ≥5 g/l ga oshgan bemorlarda balg'am konversiyasi erta kuzatilgan, klinik simptomlar tezroq regressiya qilgan va rentgenologik yaxshilanish tezroq yuz bergan. Bu albuminning nafaqat nutritiv, balki prognostik marker sifatida ham ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Qo'shimcha tahlillar shuni ko'rsatdiki, tuberkulyoz bilan kasallangan bemorlarda nutritiv tanqislik faqat kasallikning og'irligi bilan emas, balki immun tizim faoliyatining susayishi bilan ham chambarchas bog'liq. Tana vazni past bo'lgan bemorlarda yallig'lanish jarayoni uzoqroq davom etishi, klinik simptomlarning sekin regressiya qilishi va davolash samaradorligining pastroq bo'lishi kuzatildi. Bu holat protein-energetik yetishmovchilikning immun javobga salbiy ta'siri bilan izohlanadi, natijada organizmning infeksiyaga qarshi kurashish qobiliyati pasayadi.

Tadqiqot natijalarining chuqurlashtirilgan tahlili shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich tana vazni indeksi 18,5 kg/m<sup>2</sup> dan past bo'lgan bemorlarda kasallik yanada og'ir kechgan. Ushbu guruhda klinik belgilar, xususan hansirash, umumiy holsizlik va ishtahaning pasayishi ko'proq namoyon bo'lgan, shuningdek rentgenologik tekshiruvlarda infiltrativ jarayonlarning kengroq tarqalganligi aniqlangan. Bu esa past tana vazni indeksini kasallik og'irligining muhim klinik ko'rsatkichi sifatida baholash imkonini beradi.

Albumin darajasi bilan bog'liq natijalar ham muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'ldi. Albumin darajasi past bo'lgan bemorlarda davolashning dastlabki bosqichida klinik yaxshilanish sust kechgan,

bakterial ajralishning to'xtashi esa kechroq kuzatilgan. Aksincha, albumin darajasi tez tiklangan bemorlarda davolash samaradorligi yuqori bo'lib, klinik va laborator ko'rsatkichlar tezroq normallashgan. Bu albuminning nafaqat nutritiv holatni aks ettiruvchi marker, balki yallig'lanish jarayonining og'irligini baholovchi muhim ko'rsatkich ekanligini tasdiqlaydi.

Tana vazni dinamikasi va davolash natijalari o'rtasida ham aniq bog'liqlik aniqlangan. Davolashning dastlabki oylarida tana vazni oshgan bemorlarda balg'am konversiyasi tezroq yuz bergan, klinik simptomlar qisqa muddat ichida kamaygan va umumiy ahvol barqarorlashgan. Aksincha, tana vazni o'zgarmagan yoki kamaygan bemorlarda davolash samaradorligi past bo'lib, yallig'lanish jarayoni uzoqroq davom etgan. Bu esa tana vazni monitoringini klinik amaliyotda muhim baholash mezonini sifatida qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Bemorlarni tana vazni indeksi va albumin darajasi bo'yicha guruhlariga ajratib tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatdiki, ushbu ko'rsatkichlar kasallik prognozini baholashda muhim ahamiyatga ega. Tana vazni juda past bo'lgan bemorlar yuqori xavf guruhiga kiradi va ularda davolash murakkabroq kechadi. Shu bilan birga, albumin darajasi past bo'lgan bemorlarda ham asoratlar rivojlanish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi. Bu esa individual yondashuv asosida davolash strategiyasini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tana vazni va albumin darajasining tiklanishi faqat dori terapiyasi bilan emas, balki

ovqatlanish rejimiga rioya qilish bilan ham bevosita bog'liq bo'lgan. Parhez tavsiyalariga amal qilgan bemorlarda tana vazni tezroq oshgan va laborator ko'rsatkichlar yaxshiroq tiklangan. Bu kompleks davolash yondashuvining, ya'ni farmakoterapiya va nutritiv qo'llab-quvvatlashning birgalikda qo'llanilishining yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, nutritiv ko'rsatkichlarning yaxshilanishi nafaqat qisqa muddatli klinik natijalarga, balki uzoq muddatli prognozga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tana vazni va albumin darajasining oshishi bilan davolashga javob yaxshilanadi, qaytalanish xavfi kamayadi va bemorlarning hayot sifati oshadi.

Shunday qilib, chuqurlashtirilgan tahlil natijalari tuberkulyoz bilan kasallangan bemorlarda nutritiv holatni baholash va uni muntazam monitoring qilish klinik boshqaruvning ajralmas qismi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Tuberkulyoz bilan kasallangan bemorlarda nutritiv tanqislik va gipoalbuminemiya kasallik kechishi hamda davolash samaradorligini belgilovchi asosiy patogenetik va prognostik omillar hisoblanadi. Shu sababli, TVI va albumin darajasini tizimli monitoring qilish hamda standart davolash protokollariga maqsadli nutritiv korreksiyani kiritish noxush klinik oqibatlar va dori vositalarining toksik ta'sirini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

#### Список литературы / References/Iqtiboslar:

1. Agarwal A.K. et al. Hypoalbuminemia and outcomes in pulmonary tuberculosis // *J Family Med Prim Care*. – 2023. – Vol. 12(4). – P. 752– 758.
2. Bhargava A. et al. Nutritional assessment and intervention in tuberculosis care // *Natl Med J India*. – 2013. – Vol. 26(6). – P. 331–335.
3. Gupta K.B., Gupta R., Atreja A. Tuberculosis and nutrition // *Lung India*. – 2009. – Vol. 26(1). – P. 9–16.
4. Heidarneshad F. et al. Nutritional status in active and latent tuberculosis infection // *Iran J Public Health*. – 2016. – Vol. 45(11). – P. 1441– 1448.
5. Musuenge B.B. et al. Nutritional status of tuberculosis patients in Burkina Faso // *BMC Public Health*. – 2020. – Vol. 20. – Article 1831.
6. Phan MN, Guy ES, Nickson RN, Kao CC. Predictors and patterns of weight gain during treatment for tuberculosis in the United States of America. *Int J Infect Dis*. 2016 Dec; 53:1– 5.
7. Sultan K.M. Nutritional status of pulmonary tuberculosis patients in Baghdad // *J Fac Med Baghdad*. – 2012. – Vol. 54(1). – P. 30–34.
8. Van Lettow M. et al. Weight gain during tuberculosis treatment and its association with survival // *Int J Tuberc Lung Dis*. – 2004. – Vol. 8(9). – P. 1055–1061.
9. Vasantha M, Gopi PG, Subramani R. Weight gain in patients with tuberculosis treated under directly observed treatment short-course (DOTS). *Indian J Tuberc*. 2009 Jan;56(1):5-9. PMID: 19402266.
10. World Health Organization. Global tuberculosis report 2023. – Geneva: WHO, 2023.